

1-12

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**Termiz Davlat Universiteti**



**ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI**  
**FANINING**

**O‘QUV DASTURI**

**Bilim sohasi: 200000 – San’at va gumanitar fanlar**  
**Ta’lim sohasi: 230000 – Tillar**  
**Ta’lim yo‘nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (O‘zbek tili)**

Fan/modul kodi NSH4-505		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1, 8	ECTS – Kreditlar 10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	“Adabiyotshunoslik nazariyasi”	150		150	300

2	<b>I.Fanning mazmuni</b>	
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fani adabiyotning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni, adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, adabiyotning tabiiy va ijtimoiy fanlar va san'atning boshqa turlaridan farqi, adabiy turlar va janrlar, ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabilar to'g'risida ma'lumot beradi<sup>1</sup>. Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi - badiiy asarni labil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni turli metodlar asosida bar tomonlama ilmiy-estetik tahlil qilish, jahon adabiyotshunosligidagi metodlarni adabiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.<sup>1</sup></p> <p>Fanning vazifasi - “Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanining adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini O'rgatish, badiiy asarni ilmiy-estetik tahlil qilish, matnni tarkibiy qismlarga ajratish va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, obrazlar poetikasini tushuntirish, badiiy asarlarni turli metodlar asosida tahlil qilishni o'rgatish, adabiyotshunoslik tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish, o'zbek adabiyotshunoslarining maqola, taqrizlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish, talabaga san'at asarlarini his qilishni o'rgatish</p> <p><b>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:</b></p> <p>“Adabiyotshunoslik nazariyasi” fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy dasturlarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan.</p> <p>“Adabiyotshunoslik nazariyasi” fani bo'yicha bakalavr talaba adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo'nalish, o'qimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ushbu fan yuzasidan bakalavr talaba lirik, epik, dramatik janrlar, she'r tuzilishi, san'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarini bilishi va ularning foydalana olishi lozim.</p> <p>“Adabiyotshunoslik nazariyasi” fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar syujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p> <p><b>Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi</b></p> <p>Mazkur o'quv fani adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, jahon adabiyoti tarixi, hozirgi adabiy jarayon, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, falsafa fanlarida o'rganiladigan muammolar bilan bevosita bog'langan. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar</p>	

<sup>1</sup>Zoh: Mazkur fanni I kursda 1-semesterda, IV kursda 8-semesterda o'qitilish ko'zda tutilgan.

shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Dars mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o'rnini** Talabalarda adabiyotshunoslik fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, badiiy asarlarni ilmiy-estetik tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar** «Adabiyotshunoslik nazariyasi» fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi. SHuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg'or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o'tkaziladi.

### **I modul. I semestr uchun ma'ruza mashg'ulotlari:**

#### **1. Fan tarkibiga quyidagi asosiy qismlar kiradi.**

#### **1-mavzu Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot to'g'risidagi fan**

Adabiyotshunoslik fan sifatida. Adabiyotshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari. Adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Adabiyotshunoslikning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rnini

#### **2-mavzu: Adabiyotshunoslik tarixi**

Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu – adabiyotshunos. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade'. Tazkiralalar – Sharq adabiyotshunosligi muhim manbasi. G'arb adabiyotshunosligi. Bualo, Belinskiy tadqiqotlari. Gegel "Estetika"si. Adabiyotshunoslik rivojida matbuotning o'rnini. Adabiyotshunoslikning estetik did va ijtimoiy fikr o'sishiga ta'siri.

#### **3-mavzu: Badiiy asar. Badiiy asar mavzusi**

Badiiy asar va ilmiy asar. Ijtimoiy hayot va badiiy asar. Xalq og'zaki ijodi – badiiy adabiyot ibtidosi. Fol'klor namunalari va yozma adabiyot. Badiiy asar tarkibiy qismlari. Epik turga mansub asarlarning tuzilishi. Lirik (she'riy) turga oid asarlar tarkibining o'ziga xosliklari. Drama turidagi asarlarning tarkibi.

Mavzu – badiiy asarda e'tibor qaratilgan muayyan voqealik. Hayot voqealigi – badiiy asarlar uchun asosiy mavzu. Adabiyotdagi abadiy va davriy mavzular. Mavzuning yoritilishi. Badiiy asar uchun tarixiy voqealik va zamonaviy hayot muammolarining mavzu qilib olinishi.

#### **4-Mavzu: Badiiy asarda shakl va mazmun**

Shakl va mazmun tushunchalari haqida. Adabiy asarda shakl va mazmun birliigi. Adabiy asarda shakl va mazmunning o'zaro muvofiqligi badiiyatning muhim sharti sifatida. Shakl va mazmun unsurlari tasnifi.

#### **5-Mavzu: Badiiy asar syujet va kompozitsiyasi.**

Syujet – qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealarning muayyan tartibda joylashtirilishi. Fabula – bir-biri bilan uzviy bog'liq hayotiy voqealar jamlamasi. Badiiy asarda syujetning o'rnini va ahamiyatini. Hayot voqealigi – syujet asosi. Syujet tarkibiy qismlari: voqealar tuguni,

voqealar rivoji, voqealar avj nuqtasi, voqealar yechimi. Syujetda badiiy to'qima. Sayyor syujetlar. Xronikal syujetli asarlar. Ko'p tarmoqli syujetli asarlar. Epik, lirik asarlarda syujet. Drama turiga mansub asarlarda syujet. Kompozitsiya tushunchasi.

#### **6-Mavzu: Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati. Badiiy asar tili**

Badiiylik – san'at asosi. Badiiy adabiyotda hayot voqealigi va inson obrazi so'z orqali nafis tasvirlanishi. Badiiylik asar mazmuni va shaklining mutanosibligi, uslubining ravonligi, komponentlarining o'zaro uyg'un kelishi, tilining jozibadorligi kabi omillar jamlamasi. So'z-adabiyotning asosiy quroli. Badiiylik – obrazlilik. Obraz, obrazlilik, ramz, majoz. Badiiylik – ijodkor mahorati mezon. Badiiylikning epik, lirik asarlarda namoyon bo'lishi. Drama turidagi asarlarda badiiylikning aks etishi.

Badiiy asar tili va ilmiy asar tili. Obrazlilik – badiiy asar tili asosi. Badiiy san'atlar: ma'naviy, lafziy san'atlar. Muallif nutqi. Qahramon nutqi: dialog va monolog. Zamon va nakon tasviri. Personajlar portreti tasviri.

#### **7-mavzu: Obraz – insonning adabiyotdagi umumlashma tasviri**

Obraz – san'atga xos hodisa. Adabiyotda obrazning aks etishi. Inson – adabiyotdagi asosiy obraz. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim usuri.

#### **8-mavzu: Adabiy tur va janrlar**

Adabiy turlar va janrlarning so'z san'atidagi o'rni va ahamiyati. Badiiy asarlar hayot voqealigi va inson obrazini gavdalantirishiga ko'ra epos, lirika, drama turiga ajratilishi. Har bir tur janrlarga bo'linishi. Epos, lirika, drama turidagi asarlarning she'riy yoki nasr yo'lida yozilishi. Folklor va yozma adabiyotdagi janrlar.

#### **9-mavzu: She'r tuzilishi va she'r tizimlari. Aruz she'r tizimi**

She'riy nutqning o'ziga xos xususiyatlari. She'rning tarkibiy qismlari: misra, band, ritm, bo'g'in, turoq, vazn, qofiya. She'r tizimlari: aruz, barmoq. Erkin, sarbast, oq she'r. Sharq adabiyotidagi she'riy janrlar. G'arb adabiyotidagi she'riy janrlar. Aruz – Sharq numtoz she'riyatining asosiy tizimi. Aruz qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanib kelishiga asoslangan metric she'r tizimi. Aruzdagi ritmik birliklar hijo, rukn, bahr.

#### **10-mavzu. Ijodiy metod va adabiy oqimlar. Ijodkor uslubi. Adabiy jarayon**

Ijodiy metod - hayot hodisalarini tanlash va ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yo'li. Realizm va romantizm ijodiy uslubi. Klassitsizm yo'nalishi. Naturalizm, sentimentalizm, surrealizm yo'nalishi. Ijodkor uslubi. Ijtimoiy hayot adabiyot va san'atning bog'liqligi. Qadimda adabiy jarayon. Adabiy an'ana va novatorlik. Adabiy jarayordagi etakchi jihatlarining namoyon bo'lishi. Adabiy jarayonning davomiyligi.

### **II modul. VIII semester uchun ma'ruza mashg'uloti**

#### **1-mavzu: Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida**

Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o'rni, Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, ahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari bilan aloqasi

#### **2-mavzu: San'at-estetik hodisa**



San'atning tabiati va turlari. San'atda inson ruhiyati masalasi. Adabiyot –soʻz san'ati. Adabiyotning asosiy quroli soʻz ekanligi. San'atning boshqa turlari bilan badiiy adabiyotning munosabati. Adabiyot va rassomchilik. Adabiyot va musiqa. Adabiyot va kino. Adabiyot va teatr. Badiiy adabiyotda soʻzning maqomi va tasvir imkoniyatlari.

### **3-mavzu: Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan**

Adabiyotshunoslik tarixiga umumiy bir nazar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poetika asoslari; gʻarb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.

### **4-mavzu. Adabiyotning spetsifikasi**

Adabiyotning oʻziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayot oʻzaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olami tasviri; adabiyot va san'atda ruhiyat masalasi; inson his-tuygʻulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

### **5-mavzu: Adabiyotda umuminsoniylik, milliylik va individuallik**

Adabiyotning umuminsoniy mohiyati; har qanday badiiy asar muayyanmilliy zaminda yaratilishi; badiiy asar tabiatida xalqning orzu-armonlari, dardi,ruhiyatining aks etishi; adabiyotda individuallikning ilmiy-nazariy tavsifi.

### **6-mavzu. Badiiy asar tarkibi. Shakl va mazmun uygʻunligi**

Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uygʻunligi badiiylikning eng muhim mezon sifatida; poetik shaklning oʻzgarib borishi; shaklbozlik muammosi; badiiy asarning shakli va mazmuniga oid poetik unsurlar masalasi; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning badiiy asar takribidagi poetik funksiyasi;badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.

### **7-mavzu. Badiiy asarda mavzu va gʻoya tasnifi. Temotologiya**

Badiiy adabiyotdagi umrboqiy va oʻtkinchi, tarixiy va zamonaviy mavzular masalasi; mavzuning mohiyati va dolzarbligi; badiiy asar mavzusi va isteʼdod darajasi; mavzular tasnifiga doir; badiiy gʻoya va ijtimoiy gʻoyaning oʻziga xos qirralari; mavzushunoslik; mavzu, gʻoya, obraz va estetik ideal munosabati.

### **8-mavzu. Obraz poetikasi**

Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqin; obrazlarning turli nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylilik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va soʻz; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi - maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; syujet va obraz munosabati.

### **9-mavzu. Badiiy asar xronotopi**

“Xronotop”ning lugʻaviy va istilohiy maʼnosi; badiiy asarda epik tafakkur koʻlami; voqeʼlik kechadigan makonning cheksizligi; adabiy makonga xos xususiyatlar; adabiy zamonning shartlanganligi; badiiy asarda makon va zamonuygʻunligi.

### **10-mavzu. Poetik nutq xususida**

Poetik nutq va badiiy asar till masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; Nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; diologik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsionallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq mezoni.

### 11-mavzu. Adabiy tur va janrlar poetikasi

Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlarning paydo bo'lish masalasi. Adabiy janrga xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirik va insonning ruhiyati, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida. Lirikizm va drammatizm. Satira va yumor mustaqil ijod turi sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unlik. Tragikkomediya.

### 12-mavzu: Ijodiy metod va adabiy oqimlar

Ijodiy metodning o'ziga xos xususiyatlari Realizm va romantizm metodining umumiy va farqli jihatlari. Modernizm. Absurdizm. Ekzistensializm O'zbek adabiyotshunosligida metodlar masalasidagi qarashlar.

### 13-mavzu. Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasi

Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasiga manbalar; muallif "men"iga xos xususiyatlar; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodli ijodkor poetik olamining mahsusi sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asrda aks etishi.

### 14-mavzu. Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari

Badiiy did masalasi; retsepsion estetikaning mohiyati xususida; badiiy asarni qabul qilishda milliylik va umuminsoniylik tamoyillari; Badiiy tirik organizm sifatida; badiiy asarni tushunish va tushuntirish yo'llari xususida; badiiy asarni kompleks tahlil etish usul

### 15-mavzu: Adabiy jarayon

Adabiyot va san'atning ijtimoiy hayot bilan bog'liqligi. Adabiy jarayon istilohi. Adabiy jarayon adabiyot tarixi. Adabiy an'ana va novatorlik Adabiy jarayonda janrlar o'rnini Adabiy jarayonning davomiyligi

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

*(Laboratoriya ishgari), (Seminar mashg'ulollari). (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim), o'quv rejada kursatilgan turi (nomi) bo'yicha yoziladi)*

I-modul bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qadimgi davr adabiyotshunosligi
2. Arastu "Poetika"ning o'rganilishi. Arastu tragediya, komediya, drama to'g'risida
3. Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" darsligi
4. Fitratning "Shoir va shoirlig", "Eski turk adabiyoti namunalarini", "Tilimiz - 1", "Tilimiz-2", "Tilimizning abadiyligi" maqolalarini o'qib o'rganish
5. CHo'lponning adabiy-tanqidiy maqolalarini o'qib o'rganish
6. Og'zaki va yozma adabiyot namunalarini tahlili
7. Badiiy asar matni tahlili (she'r, hikoya matnini tahlil qilishda munozarali dars metodidan foydalaniladi)
8. Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari (she'r, hikoya matnini tahlil qilishda munozarali dars metodidan foydalaniladi)
9. Ijodiy metod va ijodkor uslubi
10. Ijodkor uslubi (asar matnini tahlil qilishda munozarali dars metodidan foydalaniladi). *Izoh: Tavsiya etilgan mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.*

II modul bo'yicha amaliy mashg'ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
2. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
3. Badiiy adabiyot va folklor munosabati.
4. Badiiy asarning dunyoga kelish qonuniyatlari.

5. Badiiy obraz xususiyatlari.
6. Adabiy asarlarni turlarga ajratish tamoyillari. Janr tushunchasi.
7. She'riy va nasriy nutq.
8. She'r vazniga doir amaliy mashg'ulot.
9. Badiiy asar pafosi muhokamasi
10. Ijodiy metod ustidagi bahslar.
11. Muallif, badiiy asar va jamiyat munosabati tahlili.

*Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.*

I modul bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobidagi maqolalar tahlili
2. Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari tahlili
3. Cho'ponning "Adabiyot nadir?" maqolasi tahlili
4. Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi tahlili
5. Abdulla Qahhomning "Dahshat" hikoyasi tahlili
6. Matyoqub Qo'shjonov - qodiriyshunos
7. Naim Karimovning "Adabiyot va tarixiy jarayon" kitobidagi maqolalar tahlili
8. Navoiy she'rlaridagi badiiy san'atlar
9. Bobur she'rlaridagi she'riy san'atlar
10. G'afur G'ulom she'rlaridagi badiiy san'atlar

II modul bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Adabiyotning funksiyasi. Badiiy asar g'oyasi, mavzusi va estetik ideal
2. Badiiy asar tili va poetik nutq masalasi
3. Badiiy asarda obrazlar sistemasi
4. Badiiy asar kompozitsiyasi. Epik asar kompozitsiyasi Lirik va dramatik asar kompozitsiyasi
5. Epik tur va uning janrlari. Roman. Qissa va qissaxonlik.
6. Epik asar tarkibida rivoya, tavsif va dialogning tutgan o'rnini
7. Lirik tur spetsifikasi
8. Dramatik tur, tragediya va tragikomediya
9. Hajviy tafakkur tabiati. Satira va yumor.
10. Nasriy asarda ritm. Saj haqida
11. Ijodiy metod va adabiy oqimlar
12. Adabiy - tarixiy jarayonda an'ana va yangilanish
13. Ijodkor laboratoriyasi muammolari
14. Izzat Sulton nazariyotchi olim
15. Adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon munosabati

*Izoh: Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.*

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

I-modul bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Aristotelning "Poetika" asarini o'qib o'rganish. Konspekt qilish. Yozma nazorat.
2. Forobiyning "She'r san'ati" asarini o'qib o'rganish. Referat tayyorlash.
3. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarini o'qib o'rganish. Esse yozish.
4. Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarini o'qib o'rganish. Og'zaki so'rov.
5. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayn" asarini o'qib o'rganish. Referat

tayyorlash. Maqola yozish

6. Boburning "Muxtasar" asarini o'qib o'rganish. Test va glossariy tuzish
7. Fitratning "Adabiyot qoidolari", "Aruz haqida" asarlarini o'qib o'rganish. Og'zaki so'rov. Tezis tayyorlash.
8. H.Boltaboev, M.Mahmudovning "Adabiy-estetik tafakkur tarixi" kitobini o'qib o'rganish. Glossariy tuzish
9. Yo'ls'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobini o'qib o'rganish. Badiiy san'atlar bo'yicha mumtoz va zamonaviy shoirlar ijodidan namunalar tahlil qilish hamda maqola tayyorlash
10. "Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar" o'quv qo'llanmasini o'qib o'rganish. Og'zaki so'rov
11. "Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar" o'quv qo'llanmasini o'qib o'rganish.

II modul bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
  2. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik.
  3. Sharq adabiyotshunosligining o'ziga xos qirralari.
  4. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga oid manbalarni o'qish
  5. H.Boltaboev, M.Mahmudovning "Adabiy-estetik tafakkur tarixi" kitobini o'qib o'rganish
  6. Badiiyluk mezonlari.
  7. Obrazli tafakkur tabiati
  8. N.Karimovning "XX asr manzaralari" kitobidan "Ikki sohir, ikki javohir" bo'limini o'qib o'rganish
  9. O.Sharafiddinovning "Modernizm jo'n hodisa emas" maqolasini o'qib o'rganish
  10. U.Normatovning "Qahhomi anglash mashaqqati" kitobidan "Realistik tasvimga sehirli qudrati" maqolasini o'qib o'rganish
  11. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi
  12. Q.Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" kitobidan "Anglashning azobli yo'li" maqoasini o'qib o'rganish
  13. A.Rasulovni "Badiiyluk bezavol yangilik" kitobidan "Struktura va strukturalizm" maqolasini o'rganish
  14. Badiiy ijod psixologiyasi
  15. Postmodernizm va intertekstuallik
  16. U. Jo'raqulovning "Nazariy poetika: muallif, janr, xronotop" kitobidan "Lison ut tayr"da xronotop shakllari" asarini o'qib o'rganish.
  17. Psixanalitik metodga xos xususiyatlar. Abdulla Qahhomning "Sarob" romani misolida.
  18. Adabiy oqimlar: Sentimentalizmga xos xususiyatlar, Referat tayyorlash.
  19. Adabiy oqimlar: Absurdizmga xos xususiyatlar. A.Kamyu asarlari misolida. Referat tayyorlash.
  20. U.Hamdanning "Badiiy tafakkur tadriji" asarini o'qib o'rganish
- Tavsiya qilingan mazkur mavzulardan mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish mumkin.

#### Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Kurs ishining maqsadi talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdir. O'tilgan mavzular bo'yicha quyidagi kurs ishi mavzulari tavsiya etiladi:

#### Kurs ishlari mavzulari

1. Adabiyotning ijtimoiy mohiyati.



2. Adabiyotshunoslik – soʻz sanʼati haqidagi fan
3. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari
4. Adabiyotshunoslik obyekti
5. Adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalari
6. Adabiyotshunoslikning qoʻshimcha sohalari
7. Adabiyot nazariyasi va boshqa fanlar munosabati.
8. Adabiy jarayon bilan adabiyot nazariyasi munosabati.
9. Adabiyot va mafkura munosabati.
10. Badiiy adabiyotda zamonaviylik
11. Badiiy adabiyotda tarixiylik tamoyili.
12. Badiiy asarning umrboqiyiligi masalasi.
13. Adabiyotda estetik kategoriyalar.
14. Badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasi.
15. Hayotiy voqea va badiiy toʻqima.
16. Badiiy obraz tasnifi.
17. Obraz va prototip munosabati.
18. Badiiy obraz turlari: xarakter va personaj.
19. Badiiy adabiyot va mifologik tafakkur.
20. Didaktik adabiyot tabiati.
21. Fantastik adabiyot tabiati.
22. Badiiy asar pafosi.
23. Badiiy asarda shakl va mazmun uygʻunligi.
24. Badiiy asar tili.
25. Badiiy ijod va ruhiyat masalasi.
26. Badiiy asarda mavzu va gʻoya.
27. Syujet va kompozitsiya.
28. Struktural poetika.
29. Konflikt va uning turlari.
30. Sayyor syujetlar masalasi.
31. Syujetning tarkibiy qismlari.
32. Badiiy asarda psixologizm.
33. Badiiy asarda polifonizm.
34. Badiiy asar xronotopi.
35. Badiiylik mezonlari.
36. Qahramon portreti.
37. Badiiy asarda peyzaj.
38. Badiiy tasvir vositalari.
39. Maʼnaviy sanʼatlar.
40. Lafziy sanʼatlar.
41. Poetik nutq masalasi.
42. Badiiy asar tili.
43. Soʻz va obraz munosabati.
44. Ijodkor uslubi.
45. Monolog va dialog.
46. Sheʼr vaznlari tasnifi.
47. Aruz sheʼr tizimi.
48. Barmoq sheʼr tizimi.
49. Qofiya ilmi.
50. Sharq sheʼriyatida asosiy janrlar.
51. Gʻazal poetikasi.
52. Ruboiy va tuyuq.
53. Qitʼa va fard.

	<p>54. Qasidanavislik tarixi.  55. Sarbast va erkin she'r.  56. Sonetga xos nazariy xususiyatlar.  57. Doston va poema muammosi.  58. Adabiy turlar masalasi.  59. Epik tur janrlari haqida.  60. Roman janri va uning tasnifi.  61. Qissa va povest masalasi.  62. Hikoya va novella masalasi.  63. Esse va badiaga xos nazariy jihatlar.  64. Badiiy asarda konflikt.  65. Lirik turga xos xususiyatlar.  66. Kichik lirik janrlar.  67. Lirik qahramon ruhiyati.  68. Dramatik tur tabiati.  69. Drama janri tavsifi.  70. Tragediya janri tarixi.  71. Komediya xos xususiyatlar.  72. Tragikomediya tabiati.  73. Satira va yumoming asosiy nazariy belgilari.  74. Ijodiy metod masalasi.  75. Ijodiy uslub muammosi.  76. Romantizm metodi tavsifi.  77. Realizm metodi tavsifi.  78. Essening janr xususiyati.  79. Sentimentalizm.  80. Simvolizm metodi va uning namoyondalari ijodi.  81. Formalizm.  82. Modernizm.  83. Strukturalizm.  84. Postmodernizm.  85. Adabiyotshunoslikdagi metodlar.  86. Adabiyotshunoslikda talqin usullari.  87. Biografik janr va biografik metod.  88. Psixologik tasvir unsurlari.  89. Adabiy aloqalar va adabiy ta'sir masalasi.  90. Adabiy jarayon va kitobxon ruhiyati.  91. O'zbek adabiyotshunosligida modernizm haqidagi bahslar  92. Nasriy asarda ritm. Saj.  93. Badiiy tafakkur va badiiy obraz  94. Tragikomediya  95. Badiiy asar pafosi  96. Ijodkor laboratoriyasi  97. 97Poetik nutq va uning xususiyatlari.  98. Badiiy tasvir va ifoda vositalari  99. Ijodkor uslubi.  100. Badiiy detal</p>
	<p><b>V.Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar:</b>  Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• “Adabiyotshunoslik nazariyasi)” fani dasturi Davlat ta'lim standartlari, namunaviy</li> </ul>

	<p>dasturlarga qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar asosida shakllantirilgan. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani bo'yicha bakalavr talaba adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid. adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo'nalish, oqimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ushbu fan yuzasidan bakalavr talaba lirik, epik, dramatik janrlar, she'r tuzilishi, san'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.</i></li> <li>• "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fani dan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish. asar suyujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ ma'ruza;</li> <li>✓ "keys-stadi"lar;</li> <li>✓ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>✓ guruhlarda ishlash;</li> <li>✓ taqdimot texnologiyasi;</li> <li>✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa hamda topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish topshirish.</p>
	<p><b>VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari:</b></p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aristu. Poetika. Axloqi kabir. - T.: Yangi asr avlodi, 2004.</li> <li>2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O'zbekiston, 2000.</li> <li>3. Ulug'ov A. Adabiyot nazariyasi. - T.: Sharq, 2017.</li> <li>4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - T.: Akadennashr, 2018.</li> </ol> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1 H. Boltaboyev, M. Mahmudov. "Adabiy-estetik tafakkur tarixi", 1-2 jild. T.: - T.: Mumtoz so'z, 2013-2016.</li> <li>2 Yo'ls'hoqov. So'z san'ati so'zligi. - T.: O'zbekiston, 2014.</li> <li>3. Jahon adiblari adabiyot haqida. — T., Mu'navviyat, 2010</li> <li>4. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. - T.: Akadennashr, 2018.</li> <li>5. Quronov D., Mamajonov Z., SHERALIYEVA M. Adabiyotshunoslik lug'ati. - Toshkent.: Akadennashr, 2010.</li> <li>6. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherklari - Toshkent.: Fan, 2008.</li> <li>7. Quronov D. Nazariy qaydlar. - Toshkent: Akadennashr, - 2018. - 126 b.</li> <li>8. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. - T.: Sharq, 2004.</li> <li>10. Sharq mumtoz poetikasi (H. Boltaboev talqimida). - T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008</li> <li>11. Terry Eaglyton. Theory literature. - London, 2010.</li> <li>12. Uellek R., Uorren O. Teoriya literatur. -M.: «Iskustvo», 1978.</li> <li>13. Umurov H., Nosirov A., Adabiyotshunoslik nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun</li> </ol>

- darslik. - Samarqand, SamDU nashri, 2021. - 252 b
14. Ulug'ov A. Asl asarlar sehri. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. – 2007.
15. Ulug'ov A. Durdona yoxud tag ma'noga to'la "Dahshat": monografiya 2019.
16. Ulug'ov A. Qalb qandili - T.: Akademnashr, 2013.
17. Ulug'ov A. Arastu anglatgan adabiyot. Monografiya. - Toshkent: "Muharrir". 2019.
18. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: "O'zbekiston", 1993.

**Axborot manbalar:**

1. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
2. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
3. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
4. [www.zivouz.com](http://www.zivouz.com)
5. [www.turonlib.uz](http://www.turonlib.uz)

O'quv dastur Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti Kengashning 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.  
Termiz davlat universiteti Kengashining 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - sonli qarori bilan ma'qullangan.

**Fan/modul uchun mas'ullar:**

- Arslonov A. K. – TerDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
- Yuldashev N.T. – TerDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.n.
- Sultonqulova F.B. – TerDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Taqrizchilar:**

- Mardonova L. – Termiz davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
- Murtazayev B.X. – TerDU o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.n.